

PALLIATIV YORDAMGA MUHTOJ INSONLARNI OILADA PSIXOLOGIK QO‘LLAB – QUVVATLASH



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-478-482>

Safarova Vazira Rasulovna

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

Psixologiya yo‘nalishi 1- bosqich magistri

Email: nazira.yuldasheva61@mail.ru

Tel: +998914001512

Xudaykulova Gulshoda Bahranovna

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada palliativ yordamga muhtoj aholi qatlamini qo‘llab – quvvatlash samaradorligini oshirishni ta‘minlovchi psixologik va amaliy omillar ilmiy jihatdan ko‘rsatilgan va tahlil qilingan. Maqolada aholining mazkur qatlamiga yordam berishning ustuvor yechimlaridan biri oilada ekanligi ilgari suriladi. Palliativ yordamga muhtoj inson psixologik ko‘makning ma‘lum qismini unga mas‘ul boquvchisi va oila a‘zolaridan olishi uning psixologik holatiga sezilarli darajadagi ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mazkur maqolada yoritilgan.

Kalit so‘zlar: palliativ yordam, psixologik qo‘llab-quvvatlash, hospis, oila, suhbat, intervyu metodlari.

Аннотация. В статье научно рассмотрены психологические и практические факторы, способствующие повышению эффективности поддержки населения, нуждающегося в паллиативной помощи. Отмечается, что одним из приоритетных решений является вовлечение семьи в процесс поддержки. Человек, нуждающийся в паллиативной помощи, получает значительную часть психологической поддержки от лица, осуществляющего уход, и членов семьи, что оказывает заметное положительное влияние на его психологическое состояние. В статье представлены выводы, рекомендации и методы, способные повысить эффективность помощи.

Ключевые слова: паллиативная помощь, психологическая поддержка, хоспис, семья, методы беседы и интервью.

Abstract: This article scientifically examines and analyzes the psychological and practical factors that enhance the effectiveness of support for populations in need of palliative care. The study emphasizes that one of the priority solutions for assisting this population is family involvement. Receiving part of psychological support from the primary caregiver and family members has a significant positive impact on the patient's psychological well-being, as highlighted in this article. Conclusions, recommendations, and methods potentially leading to effective outcomes are presented.

Keywords: palliative care, psychological support, hospice, family, interview and conversation methods.

Bugungi kunda aholi kasallanish darajasining ortishi natijasida butun dunyo bo‘ylab nogironlik bilan yashayotgan hamda hayotining oxirgi bosqichlarida azob-uqubatlarni boshdan kechirayotgan odamlar soni 2060-yilga borib deyarli ikki

baravar ko‘payishi kutilmoqda[1]. Palliativ yordam hayotni cheklovchi kasalliklarga chalingan insonlar va ularning yaqinlari uchun tashxis qo‘yilgan paytdan boshlab hayotining oxirigacha bo‘lgan davrda azob-uqubatlarning oldini olish yoki ularni yengillashtirish orqali hayot sifatini yaxshilaydi [3]. Bunga jismoniy, psixik yoki ma‘naviy belgilar va muammolarni o‘z vaqtida aniqlash, baholash hamda davolash orqali erishiladi. Har yili dunyo bo‘yicha taxminan 40 million kishi va Yevropa mintaqasida qariyb 5 million kishi palliativ yordamga muhtoj, biroq mos ravishda faqat taxminan 14% va 35% aholigina bu xizmatlardan foydalanadi [4].

Palliativ yordamga muhtoj aholini psixologik qo‘llab-quvvatlash muammosi zamonaviy tibbiyot, psixologiya va ijtimoiy ish sohalarida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu muammo inson hayotining eng nozik bosqichi — og‘ir va davolanishi qiyin bo‘lgan kasalliklar bilan bog‘liq holatlarda shaxsning psixologik holatini saqlab qolish, uni qo‘llab-quvvatlash va hayot sifatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatish masalalarini qamrab oladi.

Xorijiy tadqiqotlarda muammoning o‘rganilishi. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda paliativ yordam masalalari keng yoritilgan bo‘lib, ayniqsa psixologik qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati alohida ta‘kidlanadi. Jumladan, E. Kyubler-Ross tomonidan ishlab chiqilgan o‘limni qabul qilish bosqichlari nazariyasi (inkor, g‘azab, savdolashuv, depressiya, qabul qilish) paliativ psixologiyaning nazariy asoslaridan biri sifatida e‘tirof etilgan. Ushbu model og‘ir kasallikka duchor bo‘lgan bemorlarning psixologik holatini tushunishda muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, S. Blok, I. Yalom, V. Frankl, K. Saunders kabi olimlarning ishlarida paliativ bemorlarning ekzistensial muammolari, hayot ma‘nosi, o‘lim qo‘rquvi va ruhiy azoblarni yengillashtirish masalalari chuqur tahlil qilingan. Ayniqsa, ekzistensial psixoterapiya va ma‘no yo‘naltirilgan terapiya paliativ yordamda samarali usul sifatida ko‘rsatiladi.

Xorijiy tadqiqotlarda paliativ yordam faqat bemor bilan cheklanib qolmasdan, oilaning psixologik holati, parvarishlovchilarning stress va emotsional charchashi, tibbiyot xodimlarining professional yonib ketishi (burnout) muammolari bilan kompleks tarzda o‘rganilgan. Bu tadqiqotlarda psixologik qo‘llab-quvvatlash multidissiplinar yondashuv asosida tashkil etilishi lozimligi ta‘kidlanadi.

MDH va Rossiya olimlarining tadqiqotlari. MDH davlatlari, xususan Rossiya olimlari tomonidan paliativ yordamning psixologik jihatlarini tibbiy psixologiya va klinik psixologiya doirasida o‘rganilgan. Ular bemorlarda depressiya, xavotir, umidsizlik holatlari keng tarqalganligini va psixologik yordam ko‘rsatilmagan hollarda kasallik kechishining og‘irlashishini ta‘kidlaydilar.

Rossiyalik tadqiqotchilar paliativ yordamda psixolog-shifokor-oilalar hamkorligi modeliga alohida e‘tibor qaratadilar. Shu bilan birga, terminal bosqichdagi bemorlar bilan ishlashda etik me‘yorlar, psixologik muloqot madaniyati va mutaxassislarining maxsus tayyorgarligi zarurligi ko‘rsatilgan.

Mahalliy (O'zbekiston) ilmiy tadqiqotlar holati. O'zbekistonda paliativ yordam masalalari asosan tibbiy nuqtai nazardan o'rganilgan bo'lib, psixologik qo'llab-quvvatlash masalalari hali yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Mavjud ilmiy ishlar ko'proq:

- og'ir kasalliklarning klinik xususiyatlari,
- bemorlarga tibbiy parvarish ko'rsatish,
- ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish kabi masalalarga bag'ishlangan.

Psixologik qo'llab-quvvatlashga oid tadqiqotlar esa alohida maqolalar yoki umumiy psixologik yondoshuvlar doirasida uchraydi. Paliativ bemorlarning emotsional holati, oila a'zolarining psixologik ehtiyojlari va amaliyotga yo'naltirilgan psixologik modellar yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Muammoning yetarli o'rganilmagan jihatlari. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki:

- paliativ yordamga muhtoj aholini psixologik qo'llab-quvvatlashning milliy modellari yetarli emas;
- bemorlar, oila a'zolari va tibbiyot xodimlarini qamrab olgan kompleks tadqiqotlar kam;
- psixologik qo'llab-quvvatlashning samaradorligini baholash mezonlari aniq ishlab chiqilmagan.

Respublikamizda kasalliklarni nafaqat davolash, balki bemorning hayot sifatini yaxshilash ham muhim vazifalardan biriga aylangan. Davlatimiz rahbarining "2025-2030 yillarda bolalar saratoniga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida saraton kasalligiga chalingan bolalar va ularning oilalari uchun palliativ yordam tizimini takomillashtirish va bu bilan bemorlarning hayot sifatini yaxshilash vazifasi belgilab qo'yilgan[1].

Metodlar, natijalar va muhokama. Palliativ yordamga muhtoj aholini oilada qo'llab-quvvatlashga oid Yurtimizda amalga oshirilgan chora-tadbirlar va qo'lga kiritilgan natijalar haqida so'z yuritishdan avval palliativ yordam nima ekanligi haqida qisqacha to'xtalmoqchimiz. Palliativ yordam – bu kasallikni to'liq davolash mumkin bo'lmagan yoki davolash uzoq davom etadigan holatlarda bemor va uning oilasiga ko'mak berishga qaratilgan tibbiy, psixologik va ijtimoiy xizmatlar majmuasidir[4]. Maqsad bemorning ham, uning oilasining ham hayot sifatini yaxshilashdir. Palliativ yordam psixologlar, shifokorlar, hamshiralar va bemorning yaqinlari, boquvchilari tomonidan taqdim etiladi. U har qanday yoshda va jiddiy kasallikning har qanday bosqichida mos keladi. Mamlakatimizda Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan maxsus ixtisoslashtirilgan hospislar faoliyat yurita boshlagani quvonarli hol [2,5]. Bular ushbu maqsad yo'lida qilingan ishlarning amaliy natijasi bo'lishiga qaramay, hali qilinishi zarur bo'lgan boshqa ilmiy-amaliy vazifalar talaygina. Shundan kelib chiqib, biz ushbu maqolada oilaga alohida, katta ahamiyat berdik.

Oila jamiyatning eng kichik yacheykasi bo'lishiga qaramay. Unda hukm suruvchi psixologik kayfiyat oila a'zolarining har biri uchun hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bizningcha, bu katta kuch demak. Kasallik bilan kurashish davrida bemor ham, ota-ona, butun oila azolari ham qiyin, emosional og'ir jarayonni boshdan kechirishadi. Shifokorlar, hamshiralar, psixologlar va oila a'zolarining hamjihatligida bu davrni engilroq o'tkazishga harakat qilish mumkin. Bunda bemor oila a'zolarining ham emotsional-psixologik holatiga katta ahamiyat berish lozim bo'ladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib psixologik xizmat kimlarga ko'rsatilishi lozim degan o'rinli savolga quyidagicha yondashdik:

- shaxsan bemorning o'ziga;
- bemorning oila a'zolariga;
- ularni davolash va parvarishlash bilan shug'ullanuvchi hamshiralar va kichik tibbiyot hodimlariga.

Chunki, bemorning bevosita atrofida bo'lgan shaxslar uning ruhiy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishadi. Shuni inobatga olgan holda ular bilan ham ishlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Psixologik xizmat quyidagi tartib va metodlar asosida olib borilishi mumkin:

- dastlab intervyu metodi orqali maxsus tuzilgan savollar asosida psixologik yordamga ehtiyoji bor shaxslarning psixologik holati aniqlanadi.

- so'ngra suhbat metodi orqali ularga psixologik yordam ko'rsatish, dalda va motevatsiya berish mumkin.

- jarayondan keyingi natijalarni kuzatib borish va maxsus tuzilgan intervyu savollari orqali psixologik yordam ko'rsatilgan shaxslar ruhiy holatini qayta analiz qilish biz mutaxasislarga qo'lga kiritilgan natijalarning amaliy ko'rinishi bo'lib xizmat qiladi.

Psixologik xizmat jarayoni shaxs va faoliyat taraqqiyoti uyg'unligini ijtimoiy-psixologik jihatdan yetarlicha muhofaza qila oladi[6]. Faqat undan to'g'ri, maqsadli va oqilona uslublar bilan foydalanish kerak xolos.

XULOSA

Respublikamizning barcha hududlarida palliativ yordamga muhtoj ayollar, erkalar, qariyalar va bolalar juda ko'pchilikni tashkil qiladi. Ammo palliativ xizmat ko'lami hali barchani to'liq qamrab olmagan. Ushbu muammoning kichik bir yechimi sifatida bemorlarning oila a'zolari va atrofidagi unga mas'ul shaxslar bilan ishlash nafaqat bemorlarning ruhiy-psixologik holatini yaxshilash, ularning hayot sifatini ko'tarish balki aholining psixologik savodxonligini oshirish uchun ham xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ- 186-son Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 892-son, 2019-yil
3. Milliy saraton kasalligini nazorat qilish dasturlari: siyosatlar va boshqaruv bo'yicha qo'llanmalar. Jeneva: Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti; 2002-yil

4. Palliativ yordam bo'yicha ma'lumot varaqasi. Jeneva: Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti; 2020-yil
5. Ozbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi. Matbuot xizmati. Yangiliklar. 2025-yil
6. O'zbekistonda psixologik xizmat tashkil etilishining ijtimoiy-psixologik va amaliy asoslari. Dissertatsiya. Sh. R.Barotov. Buxoro-1997
7. <https://www.who.int/>
8. <https://lex.uz>